

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год


Exploring the flexibility of adjective order in english: cognitive, pragmatic, and stylistic perspectives.....	873
<b>J.G'.Numonova</b>	
The role of podcasts and audiobooks in language education.....	877
<b>J.G'.Numonova</b>	
The influence of technological advancements on language assessment methods.....	881
<b>O.Z.Dadajonov</b>	
XX asr O'zbek va Nemis dramasida davr va qahramon talqini.....	885
<b>S.A.Yusupova</b>	
The evolution of politeness: a historical analysis of English novels.....	890
<b>N.M.Merganova, N.A.Orifjonova</b>	
Og'zaki nutqning o'ziga hos xususiyatlari.....	894
<b>G.A.To'lanboyeva</b>	
Muloqot va uning xususiyatlari.....	898
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla sher ijodida tiplar an'anasi.....	901
<b>N.M.Merganova</b>	
Chet tilda og'zaki nutqni rivojlantirishning yo'llari.....	905
<b>C.X.Azimova</b>	
Категории «Вежливости» в речевых актах высказывания «Отказов», «Отрицаний» и «Удивлений» в русской и американской культурах.....	908
<b>N.A.Komilova</b>	
The representation of gender in English idiomatic expressions.....	911
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Fransuz navoiyshunosligining global ahamiyati.....	915
<b>Y.A.Nasirdinova</b>	
Aleksandr Papas Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari haqida: tasavvufiy yondashuv va tildagi maxfiy kodlar.....	919
<b>S.To'lanov</b>	
Turistik diskursning matnda ifodalanishi.....	923
<b>S.To'lanov</b>	
Turizm va reklama diskurslari: funksional va pragmatik yondashuv.....	927
<b>Y.U.Abdurazzakov</b>	
Zamonaviy sotsiolingvistik tadqiqotlar sharhi.....	931
<b>I.T.Dehqonov, T.S.Mo'minova</b>	
Fransuz tili darslarida maqol va matallar bilan ishlash usullari.....	934
<b>D.S.Usmonova, Z.A.Anvarjonova</b>	
Challenges in translating Uzbek literature to English.....	938
<b>D.S.Usmonova, N.R.Rajabova</b>	
Using ai in the field of studying english as a second foreign language.....	942
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Tarjima lug'atlarida milliy – madaniy xususiyatlar masalasi.....	946
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla she'r ijodida g'oyaviy an'ana.....	949
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon yasovchi affikslarning o'zbek va ingliz tillardagi tarjimalari.....	953
<b>G.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
O'zbekiston va Germaniyada ta'limni tashkil etishga oid leksik birliklar tavsifi.....	957
G.Astonova Oliy ta'lim tizimiga oid leksik birliklarning ifodalanishi.....	961
<b>N.A.Nizomova</b>	
Makon va zamon tushunchalar o'rtasidagi bog'liklar masalasi.....	966
<b>S.I.Quziyev</b>	
Turizm maqsadlari uchun ingliz tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	970
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
Mualliflashtirish kategoriyasining matn doirasida o'rganilganligi.....	975
<b>Z.M.Yigitaliyeva</b>	
About the term of persuasion.....	979



## FRANSUZ NAVOIYSHUNOSLIGINING GLOBAL AHAMIYATI

## ГЛОБАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФРАНЦУЗСКОГО НАВОИВЕДЕНИЯ

## GLOBAL SIGNIFICANCE OF FRENCH NAVOI STUDIES

Nasirdinova Yorkinoy Abdumuxtarovna 

Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrası dotsenti

**Annotatsiya**

Ushbu maqola fransuz olimlarining Alisher Navoiy asarlarini tadqiq qilishlari va ularning global ilmiy hamjamiyatdagi ahamiyatini yoritadi. Fransuz navoiyshunoslari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar Navoiy asarlarini yangi nuqtai nazardan tahlil qilib, ularni g'arbiy dunyoda yanada kengroq o'qilishiga yordam berdi. Maqola, shuningdek, fransuz navoiyshunosligining hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari tahlil qiladi.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются исследования французских ученых произведений Алишера Навои и их значение для мировой научной общественности. Исследования французских навоиведов представляют новые подходы к анализу произведений Навои, что способствует их более широкому признанию в западном мире. В статье также анализируется текущее состояние и перспективы французского навоиведения.

**Abstract**

This article examines the research conducted by French scholars on the works of Alisher Navoi and their significance for the global academic community. The studies by French Navoi researchers provide new approaches to the analysis of Navoi's works, contributing to their broader recognition in the Western world. The article also analyzes the current state and future prospects of French Navoi studies.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, navoiyshunoslik, fransuz olimlari, adabiyotshunoslik, temuriylar davri, chig'atoy tili, madaniy meros, Alexandre Papas, Marc Toutant

**Ключевые слова:** Алишер Навои, Навоиведение, французские ученые, литературоведение, Эпоха Тимуридов, чагатайский язык, культурное наследие, Александр Папас, Марк Туутант

**Key words:** Alisher Navoi, Navoi studies, French scholars, Literary criticism, Timurid era, Chagatai language, Cultural heritage, Alexandre Papas, Marc Toutant

**KIRISH**

Alisher Navoiy - o'zbek va turk adabiyotining mumtoz namoyandasi, ko'p asrlik madaniy merosga ega bo'lgan shoir va davlat arbobi sifatida o'zining boy adabiy va falsafiy asarlari bilan nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham keng e'tirof etilgan. Uning ijodi, ilmiy ishlari va madaniy me'rosi haqida o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, shuningdek, fransuz sharqshunoslari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Fransuz Navoiyshunosligi, o'ziga xos ilmiy va madaniy ko'lamga ega bo'lib, Alisher Navoiy ijodini global miqyosda tanitishda muhim rol o'ynaydi.

Fransuz sharqshunosligi o'zining ko'p asrlik tarixiga ega bo'lib, Sharq madaniyati va adabiyoti bilan shug'ullanuvchi ko'plab yirik olimlarni yetishtirgan. XVII asrdan boshlab, fransuz olimlari Sharq adabiyoti va madaniyatini o'rganishga alohida e'tibor berib kelganlar. Alisher Navoiy va uning ijodi haqida dastlabki ma'lumotlar ham ana shu davrda Fransiya kutubxonalarida to'plangan. XIX asrda fransuz sharqshunoslari Navoiy asarlarini tarjima qilish va tadqiq etishga kirishdilar. Jumladan, Fransua Alfons Belen va uning Navoiy shaxsiyati va asarlariga bag'ishlangan ilmiy risolalari katta ahamiyatga ega.

XXI asrda fransuz sharqshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar keng ko'lamliligi va originalligi bilan ajralib turadi. Yevropa tillari bilan bir qatorda eski turkiy til, fors, arab va boshqa sharq tillarini ham bilishlari ularning ilmiy ishlarining originalligini ta'minlaydi. Bu olimlar Navoiy ijodini



o'rganishda O'zbekiston, Turkiya, Fransiya, Amerika va boshqa davlatlar kutubxonalarida saqlanayotgan barcha qo'lyozma nusxalarini qiyosiy tadqiq qilishga intildilar. Ular nafaqat qo'lyozmalar, balki mazkur mavzuga bag'ishlangan barcha manbalarning chuqur tanqidiy tahlilini amalga oshirib, ularning farqli va ustun jihatlarini yoritdilar.

Remi Dor, Aleksandr Papas, Marc Toutant kabi olimlar Navoiyni nafaqat mumtoz badiiy mahorat egasi, eski turkiy til asoschisi sifatida, balki o'z shaxsiyatida adolatli davlat arbobi va tasavvufiy irfon sohibi sifatida tadqiq etdilar. Remi Dor, ayniqsa, Navoiy ijodining muammo janriga alohida e'tibor qaratib, uning "L'enigme du nom propre" tarjima to'plamida muammo janri va uning yechimlariga doir fikrlarni yoritdi. Bu tadqiqotlar, fransuz sharqshunoslarining ilmiy yondashuvlari va Navoiyni o'rganishdagi hissalari, shubhasiz, global ahamiyatga ega.

Fransuz Navoiyshunosligining global ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo'ladi. Birinchidan, bu tadqiqotlar Alisher Navoiy ijodini dunyoga tanitadi va uning asarlarining global miqyosda o'rganilishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, fransuz olimlarining yondashuvlari va ilmiy natijalari boshqa mamlakatlar sharqshunoslari uchun ham namuna bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, bu tadqiqotlar Sharq va G'arb madaniy aloqalarini mustahkamlashga hissa qo'shadi, madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi.

Fransuz Navoiyshunosligi, o'zining ilmiy tadqiqotlari va global yondashuvlari bilan Alisher Navoiy merosini butun dunyo bo'ylab tarqatishda va uning ijodini kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

### MATERIALLAR VA USULLAR

Bu maqola fransuz sharqshunoslari va adabiyotshunoslarining ilmiy ishlariga asoslanib, Alisher Navoiy merosining tarjima va talqinlari haqida ma'lumot berishga harakat qiladi. Tadqiqotda foydalanilgan asosiy manbalar orasida S.de Sasi, A.J.Kloprot, E.Katremyer, A.Remyozo, F.A. Belin, L.Aragon Remi Dor, Alexandre Papas, Marc Toutant va boshqa fransuz olimlarining asarlari kiradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fransiyada sharqshunoslik ilmida fundamental tadqiqotlar taraqqiyoti XVIII asrdan boshlandi. 1795 yilda Parijda "Sharq jonli tillari maktabi" ochildi va 1821 yilda "Osiyo jamiyati" tashkil topdi. Ushbu davrda S.de Sasi va boshqa olimlar turkiy adabiyot namunalari, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganish va tarjima qilish bilan shug'ullandilar<sup>36</sup>. XIX asrning o'rtalariga kelib, Navoiy ijodini keng o'rganish, tarjima va tahlil etish fransuz sharqshunosligida yangi uslubga ega bo'ldi. F.A. Belin va E.Katremyer kabi olimlar Navoiy ijodini chuqur o'rganib, yirik tadqiqotlar yaratdilar. Ularning ishlarida Navoiy merosi keng yoritilgan va asarlarining turkiy tildagi ahamiyati tasdiqlangan<sup>37</sup>.

XX asrda Navoiy ijodi fransuz sharqshunoslarining diqqat-e'tiborida bo'ldi. Sh. Shefer va E. Bloshen kabi olimlar Navoiy asarlarining qo'lyozma nusxalarini kataloglashgan. L. Buva va L. Araagon kabi olimlar Navoiy hayoti va ijodi haqida muhim tadqiqotlar olib borib, uning turkiy va fors adabiyotiga qo'shgan hissasini ta'kidladilar<sup>38</sup>.

XXI asrda fransuz adabiyotshunoslari Navoiy ijodini chuqur o'rganishda davom etmoqda. R.Dor, Alexandre Papas, Marc Toutant kabi zamonaviy olimlar Navoiy merosini chuqur tahlil qilmoqda. Ularning tadqiqotlari Navoiy asarlarining ilmiy va madaniy ahamiyatini yanada kengroq yoritishga xizmat qilmoqda. Navoiy asarlarining tarjima va talqinlari fransuz sharqshunosligi tarixida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotlar Navoiy ijodini jahon adabiyoti va madaniyati doirasida tanitishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Navoiy asarlari fransuz tiliga tarjima qilinishi va ularning ilmiy tadqiqotlari, fransuz sharqshunosligining yirik yutuqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Marc Toutant XXI asr fransuz navoiyshunosligining eng yosh, biroq eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri. 2013 yilda "Temuriylar madaniyatida tazkira janri" mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilgan. 2016 yilda mazkur dissertatsiya "Islomshunoslik va Musulmon dunyosi jamiyatlarini

<sup>36</sup> Холбеков М. Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис. док. филол. наук. Ташкент, 1991. – С. 33-55

<sup>37</sup> Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir-Navai, suivie de divers morceaux extraits des oeuvres du même auteur // Journal asiatique. Cinquième série. Tome XVII. – Paris, 1851. – P. 233-234.

<sup>38</sup> Холбеков М. Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис. ... док. фил. наук. – Ташкент, 1991. – Б. 44



## TILSHUNOSLIK

o'rganish Instituti" (Institut d'études de l'Islam et des sociétés du monde musulman (IISMM)) tomonidan eng yaxshi dissertatsiya mukofoti bilan taqdirlangan va Amsterdam universitetida (2014-2015) postdoktorant lavozimiga payinlanadi. Keyinroq, Los-Anjelesdagi Kaliforniya universitetida (2015-2016) va Ijtimoiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida (EHESS, Parij, 2016-2017) faoliyat yuritgan. 2017 yildan Fransiyaning Ilmiy tadqiqotlar milliy markazida (CNRS) ilmiy xodim va Sharq tillari institutida (INALCO) turkiy tillarining qiyosiy grammatikasi (bakalavr darajasida) va chig'atoy turkiy tili (hozirgi o'zbek tili) (magistratura darajasida) fanlaridan mashg'ulot olib bormoqda<sup>39</sup>.

Turkiy xalqlarning mumtoz adabiyoti ixlosmandi va XVI-XIX asrlar tarixchisi sifatida, Toutant Temuriylar madaniyatining bir tomondan Hindistondagi mog'il imperiyasiga, ikkinchi tomondan Usmoniylar imperiyasiga (XIV-XVI asrlar) ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu ikki siyosiy tuzilma doirasida chig'atoy turkiysining lingvistik va adabiy jihatdan o'rni va rolini o'rganib kelmoqda.

"So'zlar saltanati: so'nggi Temuriylar davrida hokimiyat, madaniyat va tasavvuf. Mir Alisher Navoiyning "Hamza" asari asosida" kitobi Marc Toutant tomonidan yozilgan va Alisher Navoiyga bag'ishlangan birinchi keng ko'lamli g'arb tillaridagi eng yirik tadqiqot hisoblanadi<sup>40</sup>. Navoiy – sermahsul yozuvchi va Hirotning temuriylar davridagi muhim shaxslaridan biri, bugungi kunda Markaziy Osiyoda adabiy yulduzdir. Uni o'qishadi, o'rganishadi, qayta nashr qilishadi, yubileylarini nishonlashadi, ko'chalar va shaharlarni uning nomi bilan atashadi. Uning haqida hamma narsa aytilgan va yozilgan kabi ko'rinadi. Ammo G'arbda Navoiy, bir nechta sharqiy adabiyot ixlosmandlaridan tashqari, kam tanilgan, ularning ko'pi esa uning asarlarini takroriy, konformist va ko'pincha balandparvoz deb hisoblashadi. Marc Toutant bu buyuk yozuvchiga adolat o'rnatishni va uni kengroq auditoriyaga tanishtirishni maqsad qilgan.

Toutant mumtoz turkiy va forsiy madaniyatlarini aks ettirgan Navoiyning keng qamrovli adabiy merosini tadqiq etadi. Zullisonayn adib qo'lyozmalari, fors turkiy tillar masalasiga oid murakkab va ikkilamchi manbalarini o'rganish rus, o'zbek va turk tillarini bilishni talab qiladi. Tadqiqotchi asrlar davomida Navoiy asarlarini o'rgangan sharqshunoslar va sovet ittifoqi davri olimlarini tanqid qilib, uning "Hamsa" (Pentalogiya) asarini Temuriylar davri va uning madaniy amaliyotlari prizmasi sifatida to'liq qayta ko'rib chiqishni taklif etadi<sup>41</sup>.

Toutant Temuriylar imperiyasining estetik kontekstini tahlil qiladi va Markaziy Osiyo islom san'atining so'nggi yutuqlariga asoslanadi. U XV asrda Hirotda estetik homiylikning asosiy maqsadi Temur davrida belgilangan shakllarni taqlid qilish, san'atni kanonlarning standartlashuvi va davrning ruhiyati san'atda, xususan, sufi marosimlarida va Navoiy chig'atoy adabiyotida aks ettirish ekanligini ko'rsatadi.

"Hamsa" transliteratsiya, tarjima va chig'atoy she'rlarini forsiy modellar bilan taqqoslash orqali chuqur tahlil qilinadi. Toutant uchta asosiy xususiyatni ajratib ko'rsatadi: tazkira quyi darajadagi taqlid emas, balki nozik o'yin variatsiyalari, she'riyat va tilning qayta asoslanishiga intilishi bo'lib, Navoiy qalamida u yanada aniqroq va didaktik bo'lgan tasavvuf in'ikosidir. "Hamsa" madaniy tarixchi uchun muhim manba va Temuriylar imperiyasining ramziy qayta tiklanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi<sup>42</sup>.

## XULOSA

Alisher Navoiy merosini fransuz sharqshunoslari va adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilishi, uning jahon adabiyoti va madaniyati tarixidagi o'rnini haqqoniy baholashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu tadqiqotlar Navoiy asarlarini turli tillarga tarjima qilish va targ'ib etishda katta hissaga ega bo'ldi, uning ijodini keng jamoatchilikka tanitishga xizmat qildi. Tadqiqotlar Markaziy Osiyo adabiyoti va madaniyatini tushunish va G'arbda kam tanilgan, ammo muhim adabiy shaxs bo'lgan Navoiyga yangi nuqtai nazar taklif etadi. U Navoiy ijodini yanada kengroq

<sup>39</sup> URL: <https://www.college-de-france.fr/fr/personne/marc-toutant>

<sup>40</sup> Toutant Marc. Un empire de mots: pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mir 'Alī Shīr Nawā'ī. – Peeters, 2016 - 701p.

<sup>41</sup> Toutant Marc. Un empire de mots: pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mir 'Alī Shīr Nawā'ī. – Peeters, 2016 - P. 13

<sup>42</sup> Toutant Marc. Un empire de mots: pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mir 'Alī Shīr Nawā'ī. – Peeters, 2016 - P. 25

kontekstdan qayta kashf qilish va qadrlashga chaqiradi, o'tmishning soddalashtirilgan va kamaytirilgan talqinlaridan tashqariga chiqishni taklif etadi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dor Rémy L'Enigme du Nom Propre. Langues Mondes. – IFEAC, 2006. P. 9
2. Garcin de Tacci, Rhétorique et prosodie des langues de l'Orient musulman. – Paris, 1873. – P.165
3. Papas, Alexandre. Mystiques et vagabonds en islam portraits de trois soufis qalandar. Patrimoines /Visages de l'islam. Paris, 2010. – 339p.
4. Papas, Alexandre. La makhfi 'ilm ou science secrète de 'Alī Shīr Nawā'ī: le projet d'une langue mystique naqshbandī. Journal of the History of Sufism, (eds. Th. Zarcone, E. Işın, A. Buehler), Paris, J. Maisonneuve, 3, 2001, 1-22.
5. Toutant Marc. Un empire de mots: pouvoir, culture et soufisme à l'époque des derniers Timourides au miroir de la Khamsa de Mīr 'Alī Shīr Nawā'ī. – Peeters, 2016 - 701p.
6. Pavet de Courteille. Dictionnaire\_turk\_oriental: destiné principalement à faciliter la lecture des ouvrages de Baber, d'Aboul-gazi et de Mir-Ali-Chir-Nevāī. – Paris, 1870. – 562p.
7. Belin F.A. Notice biographique et littéraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, suivie d'extraits tirés des œuvres du même auteur // Journal Asiatique. No 17. 1861.
8. Belin F.A. Moralistes orientaux. Caractères, maximes et pensées de Mir Ali Chir Névâii //Journal asiatique. No 7, 1866. P. 523-552; Journal asiatique. No 8, 1866.
9. Francois Belin. Notes On the Life and Creativity of Mir Ali-Shir Nava'i. Journal of Central Asian Renaissance. 2021; Special Issue 1, pp.7-32
10. Холбеков М. Н. Узбекско-французские литературные взаимосвязи (в аспекте перевода, критики и восприятия). Дис.док.филол.наук. Ташкент,1991.– 424 с.
11. Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри. – Тошкент, 1986: – 666.
12. Erkinov A.. Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinining XV-XX asr manbalari. Filologiya fanlari doktori... dissertatsiyasi. – T.: 1998. – 282 b.
13. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-muhokamat-ul-lugatayn.html>